



2022 yil "30" 05

№ 156

BUYRUQ

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
2021 yil 24 dekabrda PQ-60-son Qarori
ijrosini ta'minlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-60-son Qarorining 1-bandi asosida 2022/2023 o'quv yilidan boshlab moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha vakolatlar berilgan.

Jumladan, mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasalariga pedagog va boshqa xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan ozod etish va ichki rotasiyasiga oid tartibni belgilash vakolati berilgan.

Berilgan vakolatlardan unumli foydalanish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda PQ-60-son Qarorining 1-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Barcha prorektorlar, fakultet dekanlari va bo'lim boshliqlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-60-son Qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2022/2023 o'quv yilidan boshlab universitetga pedagog va boshqa xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan ozod etish va ichki rotasiyasiga oid masalalarni belgilashga oid ichki Tartibni ishlab chiqish uchun quyidagi tarkibda ishchi guruh tashkil etilsin:

- | | |
|--------------|---|
| B.Kulmatov | - o'quv ishlari bo'yicha prorektor, ishchi guruh raisi; |
| H.Hakimov | - yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, a'zo; |
| G.Boqiyeva | - ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, a'zo; |
| A.Abidjanov | - xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, a'zo; |
| S.Abdullayev | - MIIB prorektori, a'zo; |
| P.Jo'rayev | - rektor maslahatchisi, a'zo; |
| A.Yuldashev | - ingliz tili № 1 fakulteti dekani, a'zo; |
| T.Madraximov | - ingliz tili № 2 fakulteti dekani, a'zo; |

- Z.Abdusamadov - ingliz tili № 3 fakulteti dekani, a'zo;
S.Ziyayeva - ingliz filologiyasi fakulteti dekani, a'zo;
P.Omonov - sharq filologiyasi fakulteti dekani, a'zo;
O.Xalilloyev - roman-german filologiyasi fakulteti dekani, a'zo;
N.Ibragimova - rus filologiyasi fakulteti dekani, a'zo;
R.Karimov - tarjimonlik fakulteti dekani, a'zo;
A.Karimov - media va kommunikasiya fakulteti dekani, a'zo;
R.Fozilov - xodimlar bo'limi boshlig'i, a'zo;
F.Mirzayev - huquqshunos, a'zo.

3. Ishchi guruh (B.Kulmatov):

3.1. Joriy yilning 1 iyul kunga qadar universitetga pedagog va boshqa xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan ozod etish va ichki rotasiyasiga oid to'g'risidagi ichki Tartibni ishlab chiqsin.

3.2. Universitet jamoasi o'rtasida keng qamrovli tushuntirish ishlarni olib borsin va jamoa a'zolaridan tushgan taklif va mulohazalarni inobatga olsin.

3.3. 2022/2023 o'quv yili boshlanishiga qadar amaldagi mehnat shartnomalariga tegishli o'zgartirishlar matnlarini tayyorlasin.

3.4. Universitetga pedagog va boshqa xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan ozod etish va ichki rotasiyasiga oid Tartibni tasdiqlash uchun universitet Kengashining 2022 yil avgust oyidagi yig'ilishiga taqdim etsin.

4. Devonxona (F.To'rayeva) ushbu buyruqni barcha bo'linalarga yetkazsin.

5. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o'z zimmasida qoldiraman.

Rektor

U.Azizov

Kiritildi:

F.Mirzayev




Kelishildi:

H.Hakimov – yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor



T.Madraximov – o'quv ishlari bo'yicha prorektor v.v.b.



A.Abidjanov – xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor



S.Abdullayev – MIIB prorektori

R.Fozilov - xodimlar bo'limi boshlig'i

